O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi: 17.02.2024
БД-60220300

“TASDIQLAYMAN”
Samdu rektori:
_____ R.I.Yalmuradov
2024 yil “____”

ETNOLOGIYA
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Sa’nat va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Ta’lim yo‘nalishi:	60220300 – Tarix Kunduzgi 60220300 – Tarix Kechki

Fan/modul kodi UP1203	O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Etnologiya	48	72	120

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**Fanni o'qitishdan maqsad** – "Etnologiya" fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda xolisona ilmiy dunyoqarash, ko'nikma va malaka shakllantirish. Etnologiya va etnik tarixining asosiy bosqichlari, antropageniz jarayoni, etnik tarix, xalqlarning etnogenizi, etnoslar o'rtasida o'xshashliklar va farxlar, dunyo xalqlari klasfikatsiyasi, etnomadaniy, etnopisixalogik jarayaonlar, moddiy va ma'naviy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish. Qadimgi davr tarixiy sharoitlari ilk odamlarning mehnat qurollari, keyim-kichagi madaniyati haqida tushunchalar birish. Maktab darsliklarida Jahon xalqlari to'rli davirlarda yuz bergan etnologik jarayonlar haqida e'tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan birinchidan bo'lg'usi tarixchi pedagoglar uchun mavzuni to'loqonli va mazmunli asosda yetkazib berish. Shuningdek, mazkur fan Etnografiya, etnologiya va antropologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha magistr buyurtmachi tashkilot hisoblanuvchi Madaniy meros agentligi Yaxyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutiga arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirishda shu soha bo'yicha to'la qonli bilim ko'nikmasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga o'z mazmuni bilan xizmat qiladi. Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanishni o'rgatadi. Etnologik manbalarning xalqlar tarixini yoritishdagi o'rni va ahamiyati. Qadimgi xalqlarning etnologiyasi. Jahon xalqlarning antrapologiyasi. Aholi tillari, madaniyati, diniy qarashlari, ishlab chiqarish bilan bog'lik bo'lgan xo'jaligi va tarixini o'rgatishdan iborat

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Kirish. Fan predmeti, maqsad, vazifasi, Etnologiya fanining fan sifatida shakllanishi.** Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng Vatanimiz asl tarixini yaratishga alohida e'tibor qaratganligi masalasi. Milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, urf-odatlarimiz, bayramlarimiz tiklanayotganligi masalasi va bu borada muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning alohida g'amxo'rligi. «Etnologiya asoslari» faniga yangicha yondashuv va bu borada mavjud konsepsiyalar masalasi. Etnologiya-qadimiy fan. Uning zamonaviy yevropacha nazariy asoslari xalqlar to'g'risida mustaqil fan sifatida XIX asr o'rtalarida shakllangan. "Etnos" so'zi ilk bora qadimgi yunon tilidagi manbalarda

	uchraydi.
M2	**Dunyo xalqlari klassifikasiyasi.** Geografik klassifikasiya. Tarixiy-etnologik viloyatlar. Dunyo xalqlarining antropologik tarkibi. «Irqlar», «irqiy tiplar». Yirik irqlar va ularning xususiyatlari. Kichik irqlar. Til klassifikasiyasi. Morfologik va gnesologik. Til oilalarining genetik aloqalari. Etnos va til munosabatlari. Mustaqil tillar haqida. Din etnos madaniyatining muhim omili sifatida. Dunyo dinlari: islom, xristianlik, buddizm. Davlat dinlari. Urug'-qabilachilikka oid diniy tasavvurlar. Xo'jalik madaniy tiplar. Ho'jalik-madaniy tiplarning (HMT) asosiy belgilari. O'zlashtirish va ishlab chiqarish xo'jalik-madaniy tiplari.
M3	**Avstraliya va Okeaniya xalqlari.** Avstraliya va Okeaniya aholisining etnogenezi va etnik tarixi asosiy bosqichlari. Avstraliya va Tayemaniyaliklarning kelib chiqishi. Polineziyaliklarning shakllanishiga oid g'oyalar. V.Gumbold, Te Rangi Xiroalar g'oyasi. Tur Xayerdalning polineziyaliklarni Amerika aholisi bilan aloqador ekanligi haqidagi g'oyasi. Yevropaliklarning Avstraliya va Okeaniyaga kirishi. Yangi Gvineya papuaslari. Lingvistik va antropologik xususiyatlari. Melaneziya xalqlari. Xo'jaligi, moddiy va madaniyatlaridagi o'ziga xosliklar.
M4	**Osiyo xalqlari etnologiyasi.** Osiyo qit'asi xalqlariga oid umumiy ma'lumotlar. G'arbiy (Old), Janubiy va Janubiy – Sharqiy, Markaziy va Sharqiy Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi. Zamonaviy aholisining etnik tarkibi. Lingvistik va antropologik klassifikasiyasidagi xususiyatlar. Old Osiyo dehqonchilik va chorvachilik vatani sifatida. Xo'jalik taraqqiyoti. Asosiy xo'jalik madaniy tiplari. Aholining uy-joylari, kiyim-kechaklari, taomlari. Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyatlari. Xalq og'zaki ijodi. Aholining oilaviy turmushi va ijtimoiy, diniy munosabatlari.
M5	**O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari.** O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi. Irqiy hamda tillardagi umumiylik va o'ziga xosliklar. Aholining an'anaviy xo'jaliklari. Xo'jalik madaniy tiplar va etnik chegaralar nomutonosibligi. Dehqonchilikning vujudga kelishi, taraqqiyoti. Moddiy madaniyati. Uy-joylarning aholi xo'jaligi bilan bog'liqligi. An'anaviy kiyimlari. Hunarmandchilik. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining taomlaridagi xususiyatlari.
M6	**Old va Janubiy osiyo xalqlari** Janubiy Osiyoda afsonalar, rivoyatlarda tarannum etilgan Hindiston joylashgani. Aholisi 1 mlrd 250 mln dan ziyod ekanligi: Hindiston, Pokiston, Nepal, Butan, Bangladesh, SHri-Lanka, Maldiv Respublikasi. Hindiston yarimorolining avstralo-dravid aholisi dravid tillari: tamil, telugu, kannara va malayalida 250 mln aholi so'zlashishi. Dravidlar irqiy hususiyatlari. Bo'yining baland emasligi, qorabadan rangi, boshining cho'zinchoqligi, keng burun, qalin lablari va yirik tishlari – avstroloid irqiga mansubligi. Kiyimlari, taomlari, o'tmishdagi va hozirdagi xo'jalik faoliyatlari.
M7	**Shimoliy, Sharqiy va g'arbiy Afrika xalqlari.** Hududiy jihatdan Shimoliy Afrikaga: Jazoir, Misr, Liviya, Mavritaniya, Marokash, Sudan, Tunis; Shimoliy-Sharqiy Afrikaga: Jibuti, Somali, Eritreya, Efiopeya kirib umumiy aholisi 224 mln kishidan ko'proq. Sahrodan janubda 242 mln aholi yashab: Benim, Burkina-Faso, Gambiya, Gana, Gveniya, Gveniya Bisau, Kabo-Verde, Kot-d'Ivuara, Liberiya, Mali,

M8	**Markaziy, Tropik va Janubiy Afrika xalqlari.** Nirger, Nigeriya, Senegal, Serre-Leone, Togo, Gabona, San Tome va Prinsit, Kamerun, Markaziy Afrikada: Angola, Kongo xalq respublikasi, Kongo demokratik respublikasi, Markaziy Afrika respublikasi, Chad; SHarqiy Afrikada: Burundi, Zambiya, Kenia, Komar orollari, Mavrikiy, Madagaskar, Malavi, Mozambik, Seyshil orollari, Tanzaniya, Uganda, ruanda; Janubiy Afrikada:Botsvana, Lesoto, Namibiya, Svazilend, JAR.
M9	**Amerika xalqlari.** Shimoliy Amerika hududi 24,2 mln km.kv. AQSH (270 mln), Kanada (30 mln), Grelandiya oroli (Daniya) dan iborat ekanligi. Tub aholi bundan 30 mng yil muqaddam Shimoliy – Sharqiy Osiyodan, Bering bo'g'ozi orqali o'tganligi. Dastlabki aholi guruhlari ovni terimchilik bilan birga olib borgani. Irqiy tasnif. Amerika hindulari, ayniqsa eskimoslar Shimoliy va Sharqiy Osiyo aholisi bilan birga katta mo'g'il irqiga kirishi: uning eskimos, atlantik va tinchokeani tillarida ayrim rasa tafovutlari mavjudlgi.
M10	**Evropa xalqlari.** Etimologik ma'nosi. Yevropa xalqlarining etnik tarixi va shakllanishi. Til klassifikasiyasi. Hind-Yevropa, Oltoy, Ural til oilalari. Antropologik tarkibi. Kichik irqlar. Yevropa aholisining xo'jaligi va moddiy madaniyati. Uy-joylaridagi o'ziga xoslik. An'anaviy kiyimlari. Ijtimoiy turmushi va ma'naviy madaniyatlari. Xalq og'zaki ijodi. Dostonlar. Ertaklar. Evropa axolisining etnogenezi va etnik tarixi. Fransuz, nemis, frantsuz va boshqa Evropa millatlarini shakllanish jarayoni. Eng qadimgi va antik davrda Evropaning etnografik xaritasi.

III.Mashg'ulotlar shakli: seminar (S)

S1	Etnologiya faning asosiy yo'nalishlari va maktablari
S2	Etnogenez va etnik tarix.
S3	Yer shari aholisining etnik tarixi
S4	Dunyo aholisining klassifikasiyasi.
S5	Avstraliya va Okeaniya xalqlari
S6	G'arbiy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati
S7	O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari.
S8	Janubiy Osiyo xalqlari
S9	G'arbiy Afrika xalqlari.
S10	Markaziy va Janubiy Afrika xalqlari
S11	Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari.
S12	Yevropa xalqlari

Mashg'ulotlar shakli: amaliy I semester (A)	
A1	O'rta Osiyo xalqlari antrapologik klassifikasiyasi.
A2	Dunyo aholisining til klassifikasiyasi
jami	**4 soat**

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

№	Mustaqil ta'lim mavzulari

1	O'zbek etnologiya maktabining shakllanishi masalasi
2	Etnogenetik jarayon, etnos, ya'ni elat, millat.
3	A.Asqarovning o'zbek xalqining etnogenezi ya etnik tarixiga doir tadqiqotlari.
4	K. Shoniyozovning o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga doir tadqiqotlari.
5	Old Osiyo xalqlarining xo'jaligi va madaniyati
6	Janubiy-Sharqiy Osiyo xo'jaligi va madaniyati
7	Sharqiy Osiyo xo'jaligi va madaniyati
8	Avstraliya xalqlari madaniyati
9	Markaziy Yevropa xalqlari madaniyati.
10	Shimoliy Amerika xalqlari xo'jaligi va madaniyati
11	Janubiy Amerika xalqlari xo'jaligi va madaniyati
12	Shimoliy Amerika xalqlari moddiy madaniyati.
13	Markaziy Afrika xalqlari ma'naviy madaniyati.
14	Kavkaz xalqlari xo'jaligi va madaniyati.
15	O'zbek xalqining to'ylari.
16	O'zbek xalqining marosimlari, uy-joylari bilan bog'liq urf odatlari

"Etnologiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Etnologiya-qadimiy fan. Uning zamonaviy yevropacha nazariy asoslari xalqlar to'g'risida mustaqil fan sifatida XIX asr o'rtalarida shakllangan. "Etnos" so'zi ilk bora qadimgi yunon tilidagi manbalarda uchraydi. Geografik klassifikasiya. Tarixiy-etnologik viloyatlar. Dunyo xalqlarining antropologik tarkibi. «Irqlar», «irqiy tiplar». Yirik irqlar va ularning xususiyatlari. Kichik irqlar. Til klassifikasiyasi. Morfologik va gnesologik tepi. Til oilalarining genetik aloqalari. Etnos va til munosabatlari. Mustaqil tillar haqida. Din etnos madaniyatining muhim omili sifatida. Dunyo dinlari: islom, xristianlik, buddizm. Davlat dinlari. Urug'-qabilachilikka oid diniy tasavvurlar. Xo'jalik madaniy tiplar. Ho'jalik-madaniy tiplarning (HMT) asosiy belgilari. O'zlashtirish va ishlab chiqarish xo'jalik-madaniy tiplari. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Etnologiya" fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba "Etnologiya" fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. • Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • munozara, • o'z-o'zini nazorat. • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord

	• Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Salimov T.O'. Jahon xalqlari etnologiyasi (O'quv qo'llanma). –T.., 2020. 2. A. Asqarov. O'zbek xalqining etnogenizi va etnik tarixi. T. 2015 3. Ashirov A. Etnologiya. –T.., 2014. 4. Jabborov Iso. Jahon etnologiyasi asoslari. Toshkent. "Yangi asr avlodi", 2005. 5. А.П. Садохин. Етнология. Учибный словарь. М. 2002 6. K. Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanishi jarayoni, T., 2001. 7. Jabborov Iso. Jahon xalqlari etnografiyasi. Darslik. Toshkent.1985 **Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar** 1. Jabborov Iso. Etnografiya asoslari. Toshkent. 1981 2. Jabborov Iso. Etnografiya va jahonning etnik qiyofasi. -T.., 1982 3. Jabborov Iso. O'zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent. 1994 4. Jabborov Iso. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. –T.., 1999 5. Jabborov Iso. O'zbeklar. Turmush tarzi va madaniyati. Toshkent.2003 6. Jabborov Iso. Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. Toshkent. 2002 7. Tokarev S.A. Osnovы etnografii. M. 1986. 8. Axmedov B.A O'zbeklarning kelib chiqish tarixidan. T. 1962 9. Narodы Afriki. Pod.red.E.G. Lvovoy M. 1986. 10. Narodы Mira. Seriya. M. 1954- 1966. 11. Miroslav Stingl Tainstvennaya Polineziya. M., «Nauka», 1991.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil "30" 08 dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **Berdiyev R** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi **Berdiqulov M.T** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi assistenti (PhD).
9.	**Taqrizchilar:** **Ergashev O.T**– Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Arxeologiya" kafedrasi mudiri, dotsent (ichki) **Sandiboyev A.N** – Yahyo G'ulomov nomidagi , Samarqand Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, Phd (tashqi).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ii buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - **Xolmatov N.O'**

"Arxeologiya" kafedrasi mudiri: **dots. Ergashev O.T.**

Tarix fakulteti dekani: **prof. Djurakulova D.M.**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektori: **prof. Soleyev A.S.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti 60220300 – Tarix yo`nalishi uchun tuzilgan "Etnologiya" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Etnologiya to'g'risida talabalarda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Talabalarga jahon xalqlari etnogenezi va etnik tarixining asosiy bosqichlari, moddiy va ma'naviy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishdan iborat. Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish. Shunday ekan, Jahon xalqi o'zining ming yillik tarixi davrida ko'plab o'zgarishlarga duch keldi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tarixning haqiqiy yuzini ochib beradigan, birlamchi manbani bera oladigan fan albatta, arxeologiya fani hisoblanadi.

Etnologiya to'g'risida umumiy tasavvur va ma'lum tarixiy bilimlar bazasiga ega bo'lishni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi dunyo tarixi va o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzni ochib berishda arxeologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

Jahon xalqlari tarxida kechgan asosiy tarixiy voqeliklar, jarayonlar, etnogenitik jarayonlar, migiratsiya va hududlarning o`zalashtirilishi, tarixiy shaxslar faoliyati to'g'risida tegishli tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "Jahon etnologiyasi" fani asosiy fan sifatida oliy o'quv yurtlarining arxeologiya yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan arxeologiya fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

O`quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturi va fan sillabuslarida esa o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Fan Sillabusida "Etnologiya" fanining mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak arxeolog va arxeologiya fani o'qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

"Etnologiya" fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o'quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni mazkur ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
Arxeologiya kafedrasi mudiri: (PhD), dotsent **O.T.Ergashev**

TARIX FAKULTETI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti 60220300 – Tarix yo`nalishi uchun tuzilgan "Etnologiya" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Etnologiya, dunyo xalqlarining etnologik klassifikatsiyasi, moddiy va ma'naviy madaniyati, xo'jalik xususiyatlari, etnomadaniy jarayonlari, diniy qarashlari, madaniyatlarining zamoanviylashib borish jarayoni masalalari va ularning taraqqiyot bosqichlari, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanishni. Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, "Etnologiya" fani tanlov fan sifatida oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishi talabalariga o'tilishi kerak bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Bu fan tarix fanini endi o'rganayotgan talabalar, bu fanga qiziquvchilar uchun fundamental ma'lumotlarni bera oladi.

Etnologiya fani tarixni o'rganishda asosiy fanlar qatorida bo'lib, eng ishonchli manbalarni bera oladi. Har bir tarixchi bu fanning tub mohiyatini anglay olishi, uning sir-sinoatlarini bilishi lozim. Ayniqsa, ibtidoiy jamoa tarixi, qadimgi dunyo tarixi va o'rta asrlar tarixini haqiqiy yuzni ochib berishda etnologiya fani yutuqlariga murojaat qilishimiz lozim hisoblanadi. Lekin, bu fanning asl mohiyatini tushunib yetmasdan, uning maqsad va vazifasini anglay olmasdan, oldimizadagi muammoning yechimini topish ancha mushkul ish hisoblanadi.

O'quv dasturlari va fan sillabuslari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan, rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi va fan sillabusi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturi va fan sillabusining muhim belgisi hisoblanadi. Chunki, ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtayi nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi va fan sillabusi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturi va fan sillabusida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi

O‘quv dasturi va fan sillabuslarida esa o‘quv materiallari fan mantig‘iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta’limning O‘quv dasturi va fan sillabusi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o‘quv qo‘llanmalar, ko‘rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to‘la namoyon bo‘ladi.

Mazkur fan dasturi “Etnologiya” tanlov fani bo‘yicha yaratilgan bo‘lib, unga mazkur yo‘nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko‘rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta’lim shakllari va mavzulari, fanni o‘qitish natijalari, ta’lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

“Etnologiya” fanining fan dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan o‘quv dasturlari va fan Sillabuslariga qo‘yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni asosiy fan sifatida mazkur ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ta’lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Yahyo G’ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, Ph

Sandiboyev A.N

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI Y.G‘ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXEOLOGIYA INSTITUTI KADRLAR BO‘LIMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI Y.G‘ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXEOLOGIYA INSTITUTI ASLIGA TO‘G‘RI